

## **“INDAMAS” BOLALIKDAN LAKONIZMGACHA (YOXUD “O’TMISHDAN ERTAKLAR”GA BIR NAZAR)**

**Abduvahob Zaripov**

SamDU, filologiya fakulteti mustaqil tadqiqotchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola Abdulla Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” qissasi va asarda tasvirlangan voqeliklarning yozuvchi ruhiy-psixologik evolutsiyasining shakllanishidagi o’rni, asardagi Qahhorni o’ychan, kamgap, “fikrga boy - so’zga xasis” – umuman olganda, o’zigagina xos lakonizm egasi bo’lgan yozuvchiga aylanish sabablari aytilgan o’rinlar haqidagi mulohazalar bayon qilingani bilan xarakterlidir.*

***Kalit so’zlar:** lakonizm, bola obrazi, avtobiografik asar, mungli novellalar, , “indamas” bola, xotiralar.*

### **KIRISH**

Atomdan kuchli adabiyoti bilan badiiyat olamini nurafshon aylagan Abdulla Qahhorning teran fikri va o’ziga xos lakonizmi mana qancha yillarki o’z qiymatini yo’qotmasdan, balki yuksalib bormoqda. Adibning har bir asari alohida badiiy yutuq, novellalari ibratga kon bo’lsa-da «O’tmishdan ertaklar» qissasi yozuvchi ijodining yakuniy cho’qqisi bo’ldi deya olamiz. Bu qissadan so’ng ham bir nechta hikoyalar, «Muhabbat» qissasi yaratilgan, ularda qahhorona badiiy tafakkur ufurib tursa-da, badiiy pishqlik jihatidan «O’tmishdan ertaklar» baribir yuqori o’rinni egallab qolaveradi nazarimda. Qissani o’qir ekansiz yaxshilik, yorug’lik kutib, shunga ilhaq bo’lib mutolaa qilasiz, voqealar esa qorong’uligicha qolaveradi, yosh Abdulla esa bu ko’ngilsizliklar ichida “indamas” bolaga aylanib boraveradi. Xo’sh fikr yuritadigan bo’lsak murg’ak Alisher qalbini larzaga solgan “Mantiq ut-tayr” uni xilvatlarga boshlaydigan, odamovi qilib qo’ygani kabi Abdulla Qahhorning bu qissasiga chuqur nazar tashlar ekansiz, uning biografiyasidagi hayot manzaralari qora ranglarga bo’yalib yosh Abdullani indamas qilib qo’rganing guvohi bo’lamiz. Keyinchalik ham Abdulla Qahhor adabiyot maydonida ko’p so’zlamadi, lakonizmni o’ziga qurol qilib oldi. Butun badiiyatning mohiyatini mitti danak ichiga qamab bera oldi. Adabiyotshunoslarimiz aytganidek, “fikrga boy, so’zga xasis” bo’lib qoldi. Uning o’ynab-o’ynab aytgan gaplarini uzoq o’ylab-o’ylab yurdi odamlar. Abdulla Qahhor lakonizmi bolalikdan oqib kelgan ong oqimidagi to’lqinlardan paydo bo’lmadimikin? O’tmishdan qolgan bu ertakning kuyi shuncha maxzun bo’lsa yosh Abdulla o’sha g’amning o’ziga qanday chidadi ekan?

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qissada yozuvchi hikoyanavis vazifasini bajaradi, qissa oxiridagi «Qoʻqon xarobalari orasida» bobidan tashqari, qissaning har bir bobi shakllangan hikoyalardir, ularning har biri fojiviy ruhdagi voqeyiy novellalardir. Abdulla Qahhor bu asarida badiiy toʻqimalardan xoli ravishda real voqealarni chin yozuvchi koʻzi bilan koʻrdi, talqin etdi va nasr olamida uni gavhar darajasiga yetkazdi, soʻz durlari bilan uni tizib chiqdi. Butun umri davomida adibga tinchlik bermagan, butun ijodida “yorilmagan yaradek” (Abdulla Oripov taʼbiri) boʻlib turgan inson qadriga aloqador alamli oʻy-tuygʻular, jaholatga qarshi bosh koʻtarish yozuvchining bu asarida nido boʻlib otilib chiqdi. Abdulla Qahhor hayot yoʻllaridan qolgan izlar nasrdagi nazm boʻlib yangradi.

Adibning shoʻx emas gʻamgin, ezgin bolaligi Qoʻqon shahri va uning atrofidagi qishloqlarda oʻtgan. Otasi Abduqahhor oila tebratish ilinjida Qoʻqon shahrini tark etib, bir necha yillar qishloqma-qishloq koʻchib yurgan. Onasi Abdulladan oldin va keyin tugʻgan sakkiz farzandini qaro yerga topshirgani uchun endi Abdullajonni juda ardoqlab katta qildi. Bu yolgʻiz tirik qolgan farzand ham shod-xurramlikda, boshqa bolalar singari oʻynab-kulib koʻcha changitib katta boʻlmadi.. bunday darbadar hayot tinimsiz koʻcha-koʻchlar, keyingi qishloqqa moslashguncha boʻlgan davr murgʻak qalbni hali gʻoʻra davridayoq qotirib qoʻyaverdi. «Bir qishloqda bolalarga endi qoʻshilib, oʻrtoq orttirganimda, boshqa qishloqqa koʻchib, yana «koʻchmanchining bolasi» boʻlib qolar edim. Bu gaplar qattiq haqorat yoʻsinida aytilar edi, -deya eslaydi u tarjimayi holidi. - Bir kuni kechqurun mahalla bolalari ilonni koʻrgan chumchuqday atrofimda chugʻurlashib turganda, kuzatib turgan bir moʻysafid menga rahm qilgan boʻlib:

«Qoʻyinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi boʻlsa oʻzi boʻlibdimi, xudo qilgan»<sup>1</sup>, - dedi. Moʻysafidning bu gapi menga bolalarning taʼnasidan ham qattiqroq tegdi, uzoq yillar dilimda choʻkib yotdi. Bilmadim, ilgari qalay ekanman, lekin nazarimda meni shu gap indamas qilib qoʻydi. Uyda menga «indamas», «ichimdan top» deb dashnom beradigan boʻlishdi... Bunaqa taʼna-dashnomlar meni battar «soqov» qilar edi».

Asarni mutolaa qilar ekansiz Abdulla endi “indamas” degan nomdan qutilish uchun hatto onasidan ham qochadigan boʻlib qoladi. Shunigdek asarda qoʻli kaltalik, yoʻqchilik tufayli oilada yuz beradigan koʻngilsizliklar, inson bolasi dosh berishi qiyin boʻlgan turmush sharoitlari, bir-birini xushlamaydigan qoʻni-qoʻshnilar, insonlar orasidagi qoʻpol, shafqatsiz munosabatlar, yurtdagi avomlik, ilmsizlik va uning kulgili, ham noxush oqibatlar, bir-biridan oʻtib tushadigan voqeyiy sarguzashtlar – xullas, Abdulla shunday muhitda hayotning katta qozonida qaynadi, pishdi.

<sup>1</sup> A.Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. III jild. Toshkent: GʻGʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1988. –198 b.

“O‘tmishdan, ertaklar”da A.Qahhor bolalik yillarini eslar ekan, “kunlar g‘urbat bilan boshlanib, g‘urbat bilan tugardi”<sup>2</sup> degan jumlaning o‘zida o‘sha davrni nihoyatda ta’sirchan bo‘yoqlarda chizib bera olgan. Asarda mungli soz ila chalingan har bir voqelik, ya’ni Abdullaning murg‘ak ko‘nglidagi tuyg‘ular qo‘shiqqa aylanib jaranglaydi. Asar davomidagi bu maxzun qo‘shiqlarni tinglar ekansiz Abdullaning nuktadon yozuvchi bo‘lishida, so‘zni tejab-tejab ishlatishida bolaligining alohida o‘rni borligiga amin bo‘lasiz. Badiiyatdagi bu mung va lakonizm Abdulla Qahhorning barcha asarlarida o‘zining tamg‘asini qo‘ya olgan.

Abdulla Qahhor asarlaridagi, xususan, “O‘tmishdan ertaklar”dagi achinarli hayot tarzi, asardagi qorong‘ulik bu qusur yoki nuqsoni emas, asarning o‘ziga xos xususiyati va yutug‘idir.

Oilni tebratish uchun turli tirikchiliklar bilan shug‘ullansa-da omadi yurishmagan, insonlarning hayotiga turli yangiliklar olib kirgan, lekin ijobiy kutib olinmagan, buning o‘rniga qishloqlardan quvilavergan darbadar ota, yo‘qchilik azoblari u uchun ikkinchi, birinchi yurak oldirib qo‘ygan muammosi navbatdagi farzandini qaro yerga berib qo‘yishdan juda cho‘chidigan, Abdulladan boshqa yetti farzandini tuproqqa topshirgan, farzandlarini qabrinida ziyorat qila olishga ojiz bo‘lgan, shunday dil xiraliklar natijasida “arvak” qadar bo‘lib qolgan bechora ona, darbadar turmush va “kelgindi”lik tamg‘asidan «indamas». ..soqovga aylangan bola hikoyalari kitobxon dilini ezadi. Asrda nafaqat yosh Abdullaning hayoti, balki boshqa qahramonlar hayoti ham nihoyatda achinarli novellalardir. Hayot sinovlarida ilojsiz qolgan Babarning mudhish o‘limi, xazon bo‘lgan gul- «hur qiz» -Sarviniso halokati – bularning har biri mislsiz fojia! To‘g‘ri asarda deyarli hech bir o‘rinda qon to‘kilishi yoki jinoyat bilan odam o‘ldirilishiga duch kelmaymiz, insonlar tushayotgan chigalliklar, qishloqqa velosped yoki tikuv mashinasi olib kelib baloga qolgan temirchi tushayotgan vaziyatlar bir qarashda kulgili fojia! Bundan tashqari, Qo‘qondan naridagi qishloq ahli nemislar bilan urush boshlanganligi xabarini ikki oydan keyin eshitishi; patefonning qo‘shiq aytishi, tarvuzning po‘chog‘ida ko‘rsatilgan oddiy «hiyla», magnitning temir kalitni o‘ziga tortishi, odamning tug‘ruqxonada tug‘ilishi – yuqoridagilarning barchasi oddiy avom xalq uchun mo‘jiza bo‘lib ko‘rinaveradi. Bu oddiy yangiliklar ortidan esa g‘ayritabiiy ko‘ngilsizliklar qalashib kelaveradi. Hech bir xursandchilik xayrli intiho topmaydi.

Bo‘lajak adibning ijodiy psixologik evolyutsiyasida ko‘cha-ko‘chlar, haqoratlar, o‘z muhrini qoldirmasdan iloji yo‘q edi, albatta. Yana bir tomoni shuki, Abdulla Qahhor bu ezgin bolalik voqealari fonida oddiy xalq hayotini tashaqaridan emas, naq

<sup>2</sup> A.Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. III jild. Toshkent: G‘G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – 220 b.

ichida bo'lib, o'zi bosh qahramon bo'lib o'rganib chiqdi deya olamiz. Uning dilidagilarga bir quloq tutib ko'ring-a:

“Mening bolalik yillarim Farg‘ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on degan qishloqlarida o‘tgan. O‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rganday bo‘lar edim; dumli yulduz chiqqan edi; qo‘shnimiz juda sershovqin odam edi; otqorovul Babar (Bobir bo‘lsa kerak) degan yigitni miltiq bilan otganda yigit o‘lmagan edi, shunda otqorovul odamlarga yuzlanib: “Umrin bino bo‘lib, bunaqa battol o‘g‘rini ko‘rgan emasman, ustidan oshirib o‘q uzsam kiprik qoqmadi-ya!” degan edi”.<sup>3</sup>

Bunday musofirchilik va ko‘cha-ko‘chlar tufayli yosh Abdulla murg‘akligidan “ichimdagini top”, “odamovi”, “uyatchan” bo‘lib kamol topdi. Qissasining ikkinchi hikoyasiyoq “Indamas” deb atalishi ham shundandir balki. Unda voqealar Yaypan qishlog‘ining “Qo‘shariq” mahallasida kechadi. Yosh Abdulla bolalar bilan “Oq terak, ko‘k terak” o‘yinini o‘ynashganini, uni ham “kerak” deb tanlashlarini, orzu qilar, yugurib borib saflarni yorib o‘tishni orzu qilganini, yuragi hapriqganini yozadi. U esa har doimgidek “Kelgindi” degan nomga egalik qilib qolaveradi. Bu yomon haqoratli so‘z yosh bolaning yurak-yuragidan o‘tib ketardi. Asarda yozuvchi bu haqda shunday lavhalarni berib o‘tadi: “Kelgindi, kelgindi it”, degan gapni Olim buvoda eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma‘nosi ham borligini bilmagan edim. Cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi”. Abdulla Qahhor vazminligi, teran fikrlashi, asarlaridagi lakonizm, so‘zga xasislik shunday g‘amgin bolalik ta‘siridan emasmikin degan o‘ylar ongimizni egallaydi. Bunday xorlik va xo‘rliklar shubhasiz adabiyotimiz adabiyotshunosligimizga ustun bo‘ladigan azim daraxtni o‘stirib bergani shubhasiz. Adib qissada yana shunday eslaydi: “Hovliga kirdim. Bu gapni ayamga aytmadim. Ichimga soldim. Shundan keyin ko‘chadan, bolalardan ham, odamlardan ham ko‘nglim qoldi...”

Abdulla Qahhor zamondoshlarining xotiralarini o‘qir ekanmiz, adibning vazmin kamgap bo‘lganligiga yana bir guvoh bo‘lamiz ham uning uyatchan, vazmin, kamgap inson bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan hassos adabiyotshunos Umarali Normatovning “Adabiy tanqid jonkuyari” maqolasida shunday eslanadi: “Yozuvchi Abdulla Qahhor o‘ziga yarashadigan bir sipolik bilan suhbatga qo‘shilmay, ammo ichdan yayrab-yozilib, davradagilarning har bir gap, xatti-harakatiga zimdan razm solib, xayolga tolib o‘tirardi; davrada askiya, kulgi-qiyqiriq yangragan paytlarda esa xiyol jilmayib qo‘yardi...”

<sup>3</sup> A.Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. III jild. Toshkent: G‘G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – 188 b.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan shuni anglashimiz mumkinki, Abdulla Qahhor tabiatiga xos kamgaplik, vazminlikning tub negizlari olis bolalikda qolgan mushkul voqeliklar bilan bog'liq aslida. Faqat ungagina xos bo'lgan uslubda yozilgan hikoyalardagi lakonizm ham shuning "asorat" lari ekanligi ayon.

Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar" kompozitsiyasini yaratishda o'zigacha bo'lgan realizm namoyandalari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi yirik adiblar va klassik sharq adabiyoti an'alaridan, Chexov kabi rus adabiyoti vakillarining, shuningdek Yevropa adabiyotidagi nasr an'alarini ham davom ettirdi.

Abdulla Qahhor bolaligik xotiralari ta'sirida ko'plab asarlar yaratdi. "Anor", "O'g'ri", "Boshsiz odam", "Bemor", "Tomoshabog'", "Dahshat" shular jumlasidandir. Ularning prototiplari, eskizlarini "O'tmishdan ertaklar" qissasida uchratganday bo'laverasiz. Bundan xulosa qilish mumkinki, mashaqqatli bolalik har bir ijod namunasiga o'z tomchilarini tomizib bo'lgan. Unga o'z zamonasida ham, keyinchalik ham turli katta-kichik toshlar otilgandir. Kimlardir bu voqelikni "juda qorong'u" deb ayblagandir. Abdulla Qahhor esa o'z adabiyot maydoniga o'z aytmoqchi bo'lgan so'zi "atom"ini joylashtirib bo'lgan edi. U shu jihatlari bilan benazir bo'lib qolaveradi.

## **REFERENCES**

1. A. Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. III jild. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Мустафаев, У. У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ ШАКЛЛАНАЁТГАН ДАВРДА ФАЛСАФИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЭҲТИЁЖИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 3), 99-108.